



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

QALB VA XARAKTER IFODASI: “YUSUF VA ZULAYHO” DRAMASINING BADIY OLAMI

Ermanbetova Shoxsanam Bozorboyevna

University of Business and Science, katta o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Habib Sa'dullaning “Yusuf va Zulayho” dramasida personajlar qalbi va xarakteri ifodasining badiiy xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda asarning kompozitsion tuzilishi, she'riy va nasriy nutq uyg'unligi, ichki monologlar, sahnaviy remarkalar hamda kontrast obrazlar orqali qahramonlar psixologiyasini ochish usullari o'rganilgan. Shuningdek, mumtoz Sharq adabiyoti an'analari bilan zamonaviy dramaturgiya elementlarining sintezi alohida yoritilgan. Maqolada romantizm va realizm uyg'unligi orqali personajlar ichki dunyosi chuqur talqin etilgani ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari dramaturgning yuksak badiiy mahorati, chuqur psixologizm va xarakter yaratishdagi o'ziga xos uslubini namoyon etadi.

Kalit so'zlar: dramaturgiya, xarakter, xarakter yaratish, poetika, badiiy uslub, “Yusuf va Zulayho”, Habib Sa'dulla, romantik drama, obrazlar tizimi, personaj psixologiyasi, ichki monolog, sahnaviy remarka, she'riy nutq, kompozitsiya, romantizm va realizm sintezi.

ВЫРАЖЕНИЕ ДУШИ И ХАРАКТЕРА: ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ МИР ДРАМЫ «ЮСУФ И ЗУЛАЙХО»

Эрманбетова Шохсанам Бозорбоевна

University of Business and Science, старший преподаватель

Аннотация

В данной статье анализируются художественные особенности выражения внутреннего мира и характера персонажей в драме Хабиб Саъдулла «Юсуф и Зулайхо». В исследовании рассматриваются композиционная структура произведения, гармония поэтической и прозаической речи, внутренние монологи, сценические ремарки, а также способы раскрытия психологии героев через контрастные образы. Особое внимание уделяется синтезу традиций классической восточной литературы и элементов современной драматургии. В статье показано, что благодаря сочетанию романтизма и реализма глубоко интерпретируется внутренний мир персонажей. Результаты исследования демонстрируют высокое художественное мастерство драматурга, глубокий психологизм и своеобразный стиль создания характеров.

Ключевые слова: драматургия, характер, создание характера, поэтика, художественный стиль, «Юсуф и Зулайхо», Хабиб Саъдулла, романтическая драма, система образов, психология персонажа, внутренний монолог, сценическая ремарка, поэтическая речь, композиция, синтез романтизма и реализма.

EXPRESSION OF SOUL AND CHARACTER: THE ARTISTIC WORLD OF THE DRAMA “YUSUF AND ZULAYHO”

Ermanbetova Shoxsanam Bozorboyevna

University of Business and Science, Senior Lecturer

Abstract

This article analyzes the artistic features of the representation of characters' inner worlds and personalities in the drama “Yusuf and Zulayho” by Habib Sa'dulla. The study examines the compositional structure of the work, the harmony of poetic and prose speech, internal monologues, stage remarks, and the methods of revealing character psychology through contrasting images. Special attention is paid to the synthesis of classical Eastern literary traditions with elements of modern dramaturgy. The article demonstrates that the combination of romanticism and realism allows for a profound interpretation of the inner world of the characters. The findings reveal the playwright's high artistic mastery, deep psychologism, and distinctive style in character creation.

Keywords: dramaturgy, character, character creation, poetics, artistic style, “Yusuf and Zulayho,” Habib Sa'dulla, romantic drama, system of images, character psychology, internal monologue, stage remark, poetic speech, composition, synthesis of romanticism and realism.

Habib Sa'dulla — mohir soʻz sanʼatkori. U adabiyotimiz rivojiga nafaqat oʻz sheʼriyati bilan, balki hayot taqozosi bilan yuzaga keladigan janr — drama sohasida ham salmoqli hissa qoʻshgan ijodkoridir. Ijodkor oʻz dardini, uni hayajonga solgan hislarini, iztirobga solgan tuygʻularini ifodalashga kirishgan paytda adabiyot muayyan shaklda vujudga keladi. U sheʼr boʻladimi yoki drama — baribir inson qalbi kechinmalarini ochib beradi. Shu orqali u oʻquvchi qalbiga kirib borib, uning maʼnaviy dunyosini boyitadi, ongi va shuuriga taʼsir koʻrsatib, hayotiy muammolariga yechim topishga koʻmaklashadi.

Bu jihatdan drama janrining sahna uchun yaratilgani, xalqqa yaqinligi va sahnada qoʻyilishi bilanoq tushunarli boʻlishi uning oʻziga xos xususiyatidir. Biroq dramatik asarni sahnasiz, ijrochilarsiz, faqat matn sifatida, yaʼni oʻquvchining shaxsiy muhitida oʻqish ham alohida badiiy taʼsirga ega. Shu bois Habib Sa'dullaning “Yusuf va Zulayho” dramasi matni ustida ish olib borib, uning inson xarakterini ochishdagi ahamiyatini, shu boradagi oʻziga xosligi va koʻlamdorligini koʻrsatishni maqsad qildik.

Mazkur drama Habib Sa'dullaning ilk dramatik asari boʻlib, 1976-yilda yaratilgan. Bu syujet koʻplab ijodkorlar tomonidan qayta-qayta ishlangan boʻlsa-da, Habib Sa'dulla uni fors-tojik shoiri Abdurahmon Jomiy merosidagi asosiy gʻoyalarni saqlagan holda, drama janri talablariga mos tarzda kengaytirib, oʻziga xos uslubda talqin etgan. Asarda zamonaviylik, bugungi oʻquvchi uchun tushunarlilik va taʼsirchanlik jihatlari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ijodkor oʻzining hayotiy tajribasi va kuzatishlari bilan asarni yanada boyitgan.

Koʻrish orqali olinadigan taassurotning eng kuchli va chuqur taʼsirga ega ekanligini yaxshi anglagan ijodkor drama janrida ham samarali ijod qilib, oʻquvchilariga badiiy tuhfa taqdim etgan. Bu esa uning ijodiy kamoloti natijasidir.

“Yusuf va Zulayho” dramasi adabiyotshunos olim Erkin Xudoyberdiyev “romantik drama” sifatida baholaydi va asarni ilmiy jihatdan tahlil qilgan ilk tadqiqotchilardan biri hisoblanadi. U dramatik syujet tuzilishi — ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya va yechim bosqichlarini mohirona tavsiflab bergan.

Biz esa ushbu tadqiqotda drama orqali Habib Sa'dullaning xarakter yaratish usullari va badiiy vositalariga alohida urgʻu qaratamiz. Bu esa tadqiqotimizning oʻziga xosligini belgilaydi. Chunki sheʼriyat koʻproq eshitish va his etish orqali anglansa, dramada bu jarayon eshitish, koʻrish va oʻqish orqali bir vaqtning oʻzida amalga oshadi. Ana shu murakkablik ijodkordan yuqori mahorat talab etadi.

Mazkur drama orqali Habib Sa'dullaning xarakter yaratishdagi mahorati, uni ochib berishdagi badiiy tajribasi bilan yaqindan tanishish mumkin. Shu orqali Oʻzbekiston xalq shoiri Habib Sa'dulla ijodini oʻrganishga kamtarona hissa qoʻshishni maqsad qilganmiz.

Drama uch parda va yetti koʻrinishdan iborat boʻlib, ular yagona kompozitsion markaz atrofida uzviy bogʻlangan holda qurilgan. Birinchi parda uch koʻrinishdan tashkil topgan. Birinchi koʻrinishda Zulayxo Yusufni sevib qoladi, uni xayolida koʻradi va Yusufning kimligi ayon boʻladi; u oʻzini Misr shohi sifatida tanishtiradi. Ikkinchi koʻrinishda Zulayxoning otasi qizining baxtini oʻylab, Misr shohi Azizga elchi yuborib, quda boʻlish istagini bildiradi. Uchinchi koʻrinishda esa Yusuf Qulbobo bilan tanishadi va u bilan yaqin munosabat oʻrnatadi. Shuningdek, Yusufning oga-inilari tomonidan choʻlda quduqqa tashlab ketilgani, savdogarlar tomonidan topib olinib, Misrga sotilgani tasvirlanadi.

Ikkinchi parda ikki koʻrinishdan iborat. Toʻrtinchi koʻrinishda Zulayxo Yusufni tanib qoladi va devorga uning hamda oʻzining suratini chizdiradi. Beshinchi koʻrinishda Yusuf kelib ushbu rasmni koʻradi, ammo bu holatni Zulayxoning eri — shoh Aziz bilib qoladi. Natijada Yusuf, Zulayxo va ularning himoyachisi boʻlgan vazir qattiq jazoga tortiladi.

Uchinchi parda ham ikki koʻrinishdan tashkil topgan. Oltinchi koʻrinishda qullar Yusufni dorga osish arafasida ozod qiladilar va shoh Azizni hibsga oladilar. Yettinchi koʻrinishda esa barcha voqealar oʻz yechimiga yetadi: odamlar Azizga qarshi chiqadilar, Yusufning uch oga-inisi kelib undan kechirim soʻraydi, Yusuf ularni kechiradi. Nihoyat, Zulayxo Yusuf huzuriga olib kelinadi.

Metodologiya (Methods). Tadqiqot jarayonida bir qator ilmiy usullardan kompleks va oʻzaro uygʻun holda foydalanildi. Avvalo, matn tahlili usuli asosiy tadqiqot vositalaridan biri sifatida qoʻllanilib, u orqali dramatik asarning kompozitsion qurilishi, syujet liniyasi, voqealar rivoji va personajlar nutqining badiiy xususiyatlari atroflicha oʻrganildi. Mazkur usul yordamida asarning ichki tuzilishi, parda va koʻrinishlar oʻrtasidagi bogʻliqlik, dramatik ziddiyatlarning shakllanishi va yechimga olib boruvchi bosqichlar tahlil qilindi. Shuningdek, personajlar nutqidagi individuallik, ularning xarakterini ochib berishdagi leksik va uslubiy vositalarning oʻrni ham aniqlandi.

Shu bilan bir qatorda, qiyosiy-tipologik tahlil usuli orqali asardagi badiiy elementlar mumtoz adabiyot anʼanalari bilan taqqoslandi. Xususan, Sharq klassik adabiyotida shakllangan syujetlar, obrazlar

tizimi va ishqiy-romantik motivlarning zamonaviy dramaturgiyada qanday qayta talqin qilingani o'rganildi. Bu orqali Habib Sa'dullaning an'ana va yangilik uyg'unligini qanday ta'minlagani, mumtoz merosni zamonaviy ruhda qayta ishlash mahorati ochib berildi.

Poetik tahlil usuli tadqiqotda alohida ahamiyat kasb etdi. Ushbu yondashuv orqali asarda qo'llanilgan aruz vazni, uning turlari, g'azal va she'riy parchalarining tuzilishi, ohangdorligi hamda badiiy funksiyasi chuqur tahlil qilindi. Aruz tizimi orqali ifodalangan his-tuyg'ularning ta'sirchanligi, she'riy nutqning personaj xarakteriga mosligi va dramatik vaziyatni kuchaytirishdagi o'rni aniqlandi. Shuningdek, she'riy va nasriy nutq uyg'unligining asar umumiy poetikasidagi ahamiyatiga ham e'tibor qaratildi.

Germenevtik yondashuv esa asarni chuqur ma'naviy qatlamlarda anglash imkonini berdi. Ushbu usul asosida obraz va xarakterlarning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari, falsafiy mazmuni hamda ramziy ma'nolari talqin qilindi. Qahramonlarning harakat va qarorlari ortidagi ma'naviy-axloqiy omillar, ishq, sadoqat, sabr kabi umuminsoniy qadriyatlarning ifodasi keng yoritildi. Bu esa asarni nafaqat badiiy, balki ma'naviy-falsafiy jihatdan ham chuqur anglashga xizmat qildi.

Shu tarzda, yuqorida qayd etilgan usullarning o'zaro uyg'un qo'llanilishi tadqiqotning ilmiy asoslanganligi va xolisligini ta'minlab, "Yusuf va Zulayho" dramasida xarakter yaratishning badiiy mexanizmlarini har tomonlama ochib berish imkonini yaratdi.

Natijalar (Results). Tahlil natijalariga ko'ra, "Yusuf va Zulayho" dramasida xarakter yaratish quyidagi asosiy vositalar orqali amalga oshirilgan:

Kompozitsion tuzilish va syujet rivoji

"Yusuf va Zulayho" dramasi uch parda va yetti ko'rinishdan iborat bo'lib, asarda klassik dramatik struktura — ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya va yechim bosqichlariga izchil va mantiqiy tarzda rioya qilingan. Bu kompozitsion mukammallik asarning badiiy qiymatini oshirish bilan birga, qahramonlar xakteri va ularning ichki dunyosi bosqichma-bosqich, tabiiy ravishda ochilishiga xizmat qiladi.

Ekspozitsiya birinchi pardaning dastlabki ko'rinishlarida berilgan bo'lib, unda asosiy qahramonlar — Zulayxo, Yusuf va ularni o'rab turgan muhit bilan tanishtiriladi. Ayniqsa, Zulayxoning tush orqali Yusufga oshiq bo'lishi uning ichki ruhiy holatini belgilab beruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Bu bosqichdayoq asarning romantik ruhi va asosiy konflikt uchun zamin yaratiladi.

Tugun bosqichi Zulayxoning tushiga ishonib, uning hayotdagi voqelikka aylanishini istashi, otasi orqali Misr shohi Azizga turmushga chiqishi bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Bu yerda dramatik ziddiyat shakllanadi: Zulayxoning ideallashtirilgan ishq bilan real hayotdagi voqelik o'rtasidagi qarama-qarshilik paydo bo'ladi. Tomoshabin aynan shu nuqtadan boshlab voqealar rivojini qiziqish bilan kuzata boshlaydi.

Voqealar rivoji bosqichida asarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi namoyon bo'ladi. Yusufning qul sifatida Misrga kelishi, Zulayxoning uni tanib qolishi, ular o'rtasidagi ichki va tashqi ziddiyatlarning kuchayishi syujetni yanada keskinlashtiradi. Shu jarayonda yordamchi konfliktlar — quldorlik tizimi, Azizning hukmdorlik tabiati, ijtimoiy munosabatlar ham asar mazmuniga chuqurlik bag'ishlaydi. G'azallarda "tarahhum" (rahm qilish, g'amxo'rlik, marhamat), "yolborib" (yolvormoq, yalinmoq, yalinib so'ramoq), "ashk" (ko'z yoshi), "dushvor" (qiyin, og'ir, mushkul), "yanglig'" (singari, o'xshash) kabi mumtoz adabiyotga oid so'zlar mavjud bo'lsa-da, o'quvchi g'azalni tushunib olishga qiynalmaydi. Voqealar qaysi tarixiy davrni aks ettirayotgan bo'lmasin, tomoshabin uchun tushunarlilik va soddalik zarur. Habib Sa'dulla buni yaxshi anglagan va bu soddalik qahramon tuyg'ulari ifodasini, uning kechinmalarini yanada ochib berishini unutmagan.

Zulayxoning iztirobi, yor hajridagi kuyib-yonishlari, javobsiz tuyg'ulardan chekkan g'am-anduhini tushunib olish silliq kechadi. "Loaqal bir bor rahm qilmading, bir yoqimli so'z demading. Ko'zlarimdan yosh oqib, yalinib zorlansam ham tosh diling erimadi. Tiriklikda visoling shunchalar qiyin ekan, hech yo'q qonim sening ishqing yo'lida lola yanglig' unsin", — deydi. U ishq uchun har narsaga tayyorligini aytadi. Bu qasam, bu iztirobni yetkazib berish uchun sahnada pauzadan foydalanilgani, pauzadan so'ng keskin xulosaning keltirilishi Zulayxo qalb kechinmalarining har bir o'quvchi qalbiga yetib borishini ta'minlaydi.

Endi Zulayxoning ishqiga ishonchi ortgan:

"Magar zahmatlidir yorning visoli,

Mening ishqim, zarim chiqqusi g'olib..."

U o'z muhabbatiga ishonadi, zahmat chekib bo'lsa-da, yor visoliga yetmoqligiga ishonchi komil bo'ladi. Voqealar rivoji tobora jadallashib boradi. Kulminatsiya yaqinlashadi.

Kulminatsiya bosqichi Zulayxo va Yusuf o'rtasidagi to'qnashuv, ya'ni ishq va axloq, nafs va sabr

o'rtasidagi keskin qarama-qarshilik eng yuqori nuqtaga chiqqan paytda yuzaga keladi. Yusufning Zulayxo muhabbatiga rad javob berishi, bu orqali o'zining ma'naviy pokligi va irodasini namoyon qilishi dramatik ta'sirni kuchaytiradi. Shu bilan birga, Azizning bu holatga munosabati vaziyatni yanada chigallashtiradi.

Yechim bosqichida asardagi barcha ziddiyatlar muayyan ma'noda o'z halini topadi. Yusufning ozodlikka erishishi, aka-ukalari bilan yarashuvi hamda Zulayxoning uning huzuriga keltirilishi orqali asar mantiqiy yakunga yetadi. Mazkur yakun nafaqat syujet nuqtayi nazaridan, balki ma'naviy-falsafiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Unda kechirimlilik, sabr-toqat va muhabbat kabi umuminsoniy qadriyatlar ustuvor g'oya sifatida ilgari suriladi.

Shu tarzda, dramatik asarning kompozitsion tuzilishi qat'iy va izchil tizim asosida shakllangan bo'lib, har bir bosqich o'z vazifasini aniq va samarali bajaradi. Bu esa asarda xarakter yaratish jarayonining izchil, ishonchli va badiiy jihatdan ta'sirchan tarzda amalga oshirilishiga zamin yaratadi.

Xulosa (Conclusion). Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, Habib Sa'dullaning "Yusuf va Zulayho" dramasi o'zbek dramaturgiyasida xarakter yaratishning o'ziga xos badiiy namunasi sifatida namoyon bo'ladi. Asarda personajlar ruhiyatini ochishda kompozitsion tuzilish, she'riy va nasriy nutq uyg'unligi, ichki monologlar hamda kontrast obrazlar tizimi muhim o'rin tutadi.

Dramaning badiiy qimmatini uning klassik Sharq adabiyoti an'analari bilan zamonaviy dramaturgiya elementlarini uyg'unlashtira olganida yanada yaqqol ko'rinadi. Shuningdek, romantizm va realizm sintezi orqali qahramonlarning ichki dunyosi chuqur va ta'sirchan tarzda ochib berilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Habib Sa'dulla dramaturg sifatida inson xarakterini nafaqat tashqi harakatlar, balki ruhiy kechinmalar orqali ham ishonchli tasvirlashga erishgan. Bu esa asarning estetik ta'sirini kuchaytirib, uning ilmiy va badiiy qimmatini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jo'rayev H. Lirikada an'anaviylik va o'ziga xoslik. — Toshkent: Fan, 2004. — 148 b.
2. Jo'rayev H. Lirik qahramon va muallif shaxsiyati. — Toshkent: Fan, 2008. — 80 b.
3. Jumaxo'ja N. Ramzi haqiqat erur ishq majoz // G'oyiblar xaylidan yongan chiroqlar. — Toshkent: O'zbekiston, 1994. — B. 297.
4. Mamajonov S. Ranglar va ohanglar. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. — 240 b.
5. Sa'dulla H. Tanlangan asarlar: 2 jildlik. 2-jild. — Toshkent: Sharq, 2002. — 312 b.
6. Qodirov P. Adabiyot nazariyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 1996. — 256 b.
7. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. — Toshkent: Meros, 2004. — 320 b.
8. Hamidov H. O'zbek dramaturgiyasi tarixi. — Toshkent: Fan, 2010. — 280 b.
9. Karimov N. Mumtoz adabiyot va zamonaviy talqin. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. — 264 b.
10. Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon. — Toshkent: G'afur G'ulom, 1985. — 180 b.